



**IQTISODIYOTNING SANOAT TARMOG'I HAMDA QAYTA ISHLANUVCHI
SANOAT SOHALARI**

Oripova Madinabonu Mansur qizi

QarDu, iqtisodiyot yo'nalishi

023-19-guruh 3-bosqich talabasi



Annotatsiya: *Sanoat tarmog'i iqtisodiyotning eng muhim tayanch tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Misol sifatida iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarining shakllanishi hamda rivojlanish negizida sanoat tarmog'i o'zak bo'lib turishini ko'rishimiz mumkin. Iqtisodiyot tushunchasi ancha keng tushuncha hisoblanadi va bugungi kunda rivojlanib borayotgan barcha sohalarni o'z ichiga oladigan negiz hisoblanadi bunda esa ushbu sanoat tarmog'ining o'rni muhim rol o'ynaydi. Hozirgi jadallashib borayotgan bir davrda sanoat tarmog'ining o'zi ham ikki tushunchaga ajralganini ko'rishimiz mumkin. Bular Sanoat tarmog'i hamda qayta ishlanuvchi sanoat tarmoqlariga bo'linadi.*

Kalit so'zlar: *Sanoatlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligi, sanoat infratuzilmasi texnologik modernizatsiya, mehnat resurslari, investitsiyalar, iqtisodiy o'sish.*

Аннотация: *Промышленный сектор является одним из важнейших вспомогательных секторов экономики. Например, можно увидеть, что промышленный сектор служит основой для формирования и развития других секторов экономики. Понятие экономики очень широкое и лежит в основе всех развивающихся сегодня областей, и роль промышленного сектора в этом процессе очень важна. В нынешний период стремительного развития можно наблюдать, что сам промышленный сектор делится на два понятия: промышленный сектор и перерабатывающая промышленность.*

Ключевые слова: *индустриализация, эффективность производства, технологическая модернизация промышленной инфраструктуры, трудовые ресурсы, инвестиции, экономический рост.*

Abstract: *The industrial sector is one of the most important supporting sectors of the economy. As an example, we can see that the industrial sector is the basis for the formation and development of other sectors of the economy. The concept of economy is a very broad concept and is the basis for all areas that are developing today, and the role of this industrial sector plays an important role in this. In the current period of rapid development,*



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



we can see that the industrial sector itself is divided into two concepts. These are divided into the Industrial sector and the processing industry.

Keywords: *Industrialization, production efficiency, technological modernization of industrial infrastructure, labor resources, investments, economic growth.*

Kirish: Sanoat tarmog'i, qayta ishlanuvchi sanoat va sanoatlashtirish tushunchalari o'zaro yaqin so'zlar tushunchalar bo'lsada iqtisodiyotda har birini o'zining asosiy shakllari hamda vazifalari mavjuda. O'sib borayotgan iqtisodiy sektorlarni tub ildiziga qaraydigan bo'lsak sanoat asosiy rivojlanish punkttining asosi ekanligini ko'rishimiz mumkin. Sanoat iqtisodiyoti boshqa iqtisodiy sohalardan muhim soha sifatida ajralib turadi, o'zining qo'shimcha qiymat yaratishi ishlab chiqarish chiqarish hajmini yuqori o'rinda turishi bilan ajralib turadi hamda aholi iste'molini eng katta qismi sanoat iqtisodiyoti orqali amalga oshadi. Qayta ishlash sanoat sohasidagi qazib olish va ekish jarayonlari orqali yangi tur hamda nav kashf etiladi va bu orqali sanoat diversifikatsiyalashuvi rivojlanadi. Sanoat tarmog'i orqali nafaqat aholi iste'moli qondiriladi balki aholi daromadlariga ham bilvosta ta'sir ko'rsatadi, ya'ni past darajadagi rivojlanayotgan mamlakatlar sanoat tarmog'i vazifalari ish o'rinlarini yaratadi bu esa o'z-o'zidan aholi daromadining o'sishiga olib keladi.

Tadqiqotlar metodologiyasi

Tadqiqotni olib borishda statistik tahlil, iqtisodiy hamda tizimli va majmuaviy yondashuv usullaridan foydalanilgan.

Mavzuga doir adabiyotlar sharhi

Sanoat tarmog'i rivojlanishi ishlab chiqarsish darajasini o'sishini keskin oshiradi va shu bilan bir qatorda nafaqat aholi ehtiyojlari keng qondiriladi balki, aholi daromadlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Sanoat tarmoqlari chekka hudulargacha yetib borishi natijasida aholi ma'lumotining oshishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Sanoat ishlab chiqarish sohasining rivojlanishiga xususan, qayta ishlab chiqarish tarmog'i uchun texnologik qurilmalar hamda yechimlardan foydalanish muhim rol o'ynaydi texnologik qurilmalarni jalb etish hamda ulardan samarali foydalanish uchun ish faoliyat olib borayotgan ishchi xodimdan malaka va yetarli ma'lumot talab etiladi bu orqali samarali ish jarayonlarini tashkil etilishini yo'lga qo'yish mumkin.

Klassik iqtisodiy nazariya vakillari — A. Smit va D. Rikardo o'z asarlarida sanoat ishlab chiqarishining mehnat taqsimoti va samaradorlikni oshirishdagi rolini asoslab berganlar. Ularning fikricha, sanoat tarmoqlarining rivojlanishi iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Keyinchalik K. Marks sanoat va ishlab chiqarish munosabatlarini tahlil qilib, qayta ishlovchi sanoatning kapital jang'arish jarayonidagi ahamiyatini ko'rsatib bergan.

Neoklassik va keynsian iqtisodiy maktab vakillari sanoat sektorining iqtisodiy barqarorlik va bandlikni ta'minlashdagi rolga alohida e'tibor qaratganlar. J. M. Keynes sanoat ishlab chiqarishini rag'batlantirish orqali umumiy talabni oshirish mumkinligini ta'kidlagan. Shu





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



bilan birga, sanoat tarmoqlariga investitsiyalar jalb qilish iqtisodiy sikllarning salbiy ta'sirini yumshatishda muhim vosita sifatida qaraladi.

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda qayta ishlovchi sanoat innovatsion rivojlanish, texnologik modernizatsiya va raqobatbardoshlik bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilinadi. M. Porterning raqobat ustunliklari nazariyasida sanoat klasterlari va yuqori qo'shimcha qiymatga ega ishlab chiqarish tarmoqlari mamlakatning global bozordagi mavqeini mustahkamlovchi asosiy omil sifatida ko'rsatilgan. Shuningdek, sanoatda innovatsiyalarni joriy etish mehnat unumdorligini oshirish va mahsulot tannarxini pasaytirishga xizmat qiladi.

MDH va O'zbekiston iqtisodchilari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sanoat, xususan, qayta ishlovchi sanoatni rivojlantirish iqtisodiy diversifikatsiyaning muhim yo'nalishi sifatida baholanadi. Mahalliy olimlar sanoatni xomashyo yetkazib beruvchi tarmoqlardan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirish orqali eksport tarkibini yaxshilash va tashqi iqtisodiy xavflarni kamaytirish mumkinligini ta'kidlaydilar.

Tahlil va natijalar

Iqtisodiyotning sanoat tarmog'i milliy iqtisodiyotning asosiy ishlab chiqarish sohaslaridan biri bo'lib, xom ashyoni qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi. Bu tarmoq mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi, aholining bandligi va eksport salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Sanoat tarmog'i yalpi ichki mahsulotga katta hissa qo'shish, minglab ish o'rinlarini yaratish, eksport mahsulotlari ishlab chiqarish orqali xorijiy valyuta tushumlarini ko'paytirish hamda ilg'or texnologiyalarni joriy etish orqali innovatsion rivojlanishni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Qayta ishlanuvchi sanoat bir nechta strategik sohalarga bo'linadi va ularning har biri iqtisodiyotda o'ziga xos o'rin tutadi. Yengil sanoat to'qimachilik, tikuvchilik, charm-poyabzal ishlab chiqarish sohaslarini qamrab oladi va aholining kundalik ehtiyojlarini qondirish bilan birga, eksport imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Oziq-ovqat sanoati qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash orqali oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaradi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda asosiy o'rin tutadi. Kimyo sanoati mineral o'g'itlar, plastmassa, dori-darmonlar, bo'yoqlar va boshqa kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqaradi, zamonaviy iqtisodiyotda bu soha strategik ahamiyatga ega. Mashinasozlik transport vositalari, qishloq xo'jaligi texnikasi, sanoat uskunalari ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi va texnologik rivojlanishning asosini tashkil etadi. Metallurgiya rangli va qora metallar ishlab chiqarish, ularni qayta ishlash va boshqa sanoat tarmoqlari uchun xom ashyo tayyorlash bilan shug'ullanadi. Qurilish materiallari sanoati esa sement, g'isht, shisha, keramika va boshqa qurilish materiallari ishlab chiqaradi.

Qayta ishlanuvchi sanoatning iqtisodiyotga qo'shadigan hissasi juda katta. Bu soha xom ashyoga qo'shimcha qiymat qo'shish orqali iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish orqali mamlakatning tashqi savdoga bog'liqligini kamaytiradi, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun sharoit yaratadi va tegishli sanoat tarmoqlarini rivojlantirish orqali iqtisodiyotning





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



diversifikatsiyasiga yordam beradi. Shuningdek, qayta ishlash jarayonida resurslardan samarali foydalanish va chiqindilarni qayta ishlash imkoniyati atrof-muhitni muhofaza qilishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar hamda o'rganishlar natijasi shuni ko'rsatadiki sanoat hamda qayta ishlab chiqarish sanoat tarmoqlari makroiqtisodiy rivojlanishning asosiy tayanch ko'rsatkichlaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Sanoat iqtisodiyotining rivojlanishi aholi daromadini oshiribgina qolmay balki milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi bu esa mamlakat yalpi milliy daromadini tashqi bzorga raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Tadqiqotlat shuni ko'rsatadiki, sanoat tarmoqlarining rivojlanishi, investitsiyalarni jalb qilinishi, yangi texnologiyalrni joriy etish, ishlab chiqarsih infratuzulmasini yaxshilash hamda aholi malakali mehnat resruslarini jalb qilish bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Ushbu jarayonlarning rivojlanish hamda takomillashuvi orqali sanoat iqtisodiyoti o'sish sur'atlari oshib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xotamov I.S., Madraximova G.R. Sanoat iqtisodiyoti (kredit-modul bo'yicha) : O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tavsiya etilgan darslik. – Toshkent, 2022. – 327 bet.
2. Abdullayev A.X. Sanoat iqtisodiyoti. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – 304 b.
3. Karimov A.M. Sanoat korxonalarining iqtisodiyoti va boshqaruvi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 288 b.
4. Ismoilov B.Sh. Sanoat tarmoqlari iqtisodiyoti. – Toshkent: O'qituvchi, 2021. – 312 b.
5. Raximov N.R., Jo'rayev D.A. Sanoatda ishlab chiqarishni tashkil etish. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018. – 260 b.
6. Saidov U.K. Sanoat korxonalari faoliyatini tahlil qilish. – Toshkent: Fan, 2020. – 276 b.

